

EKVIVALENT MAQOLLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA MISOLLAR**Boymurodova Mohichehra Nuriddin qizi****Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich
Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi****Tog'aymurodova Dilafro'z Chori qizi****Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich
Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi****Mirzayeva Feruza Samijonovna****Termiz davlat pedagogika instituti Gumanitar yo'nalishlarda
xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi
feruzamirzayeva1983@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20093812>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekvivalent maqollar tushunchasi, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari yoritiladi. Turli tillardagi maqollar o'rtasidagi ma'no uyg'unligi, strukturaviy o'xshashlik va farqlar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi ekvivalent maqollar misollar orqali tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida maqollarni tarjima qilishda madaniy kontekstni hisobga olish muhim omil ekanligi aniqlanadi.

Abstract: This article discusses the concept of equivalent proverbs, their linguistic and cultural characteristics. The semantic coherence, structural similarities and differences between proverbs in different languages are examined on the basis of comparative analysis. Also, equivalent proverbs in English and Uzbek are analyzed through examples, and their importance in the translation process is revealed. The study reveals that taking into account the cultural context is an important factor in translating proverbs.

Kalit so'zlar: Maqol, o'zbek maqollari, ingliz maqollari, rus maqollari, mutloq tarjima, qiyosiy tarjima, tarjima qilib bo'lmaydigan maqollar, sinonim va antonim.

Keywords: Proverb, Uzbek proverbs, English proverbs, Russian proverbs, absolute translation, comparative translation, untranslatable proverbs, synonyms and antonyms

Maqollar xalqning nomoddiy merosi hisoblanadi. Ular asrlar davomida shakillanib kelgan, xalq hayotiga oid bo'lgan, hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan. Odatda pand-nasixat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap. Ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan. Maqollar badiiy asarlarga o'ziga xos bo'yoqdorlikni vujudga keltiradi. Bugungi kunda maqollar yuzasidan o'rganishlar olib borish, kengroq targ'ib etish, ilm-fan jihatidan chuqurroq yondashish muayyan soha sifatida namoyon bo'lgan.

Maqollarni tarjima qilish jarayonida, ingliz tilidagi maqollarning umumiy, sinonim va antonim xususiyatlari haqida qisqacha izlanishlar olib borildi. Ingliz, rus va o'zbek tilidagi maqollarni o'rganish, leksik tahlil jarayonida metadologik manbalar sifatida quyidagilar belgilandi. "Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy madaniy, universal xususiyatlari va tarjima jarayonidagi muammolarning tahlili natijalari" (Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies) maqola, O'zbek tilining izohli lug'ati (izoh.uz). Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиялогия. –Москва, 1998 г

Maqol keng model va belgilarni tashkil etuvchi materialning tasnifini beradi. Ushbu keng modeldan foydalanish, ba’zi aniqroq modellarni va turli xil belgilarni ishlab chiqarishi mumkin. Bu maqolning “keng ma’noli” ekanligini tushuntiradi. Maqol ikki so’zdan iborat bo’lib o’zida “ko’p ma’noni”, ya’ni shu ikki yoki bir nechta so’zlar ketma-ketligi butun bir matn ko’rinishiga ega mazmunni jamlashi mumkin bo’ladi. Bu maqollarni tarjima qilishimizda va tahlil qilishimizda bir qator muammolarni yuzaga chiqaradi. Asosiy sabab esa ularning rang-barangligida, obrazli ekanida.

Maqollar tahlili va tarjimasida uch xil yo’ldan foydalangan holda o’rganishlar olib boriladi.

1. Mutloq tarjima;
2. Qiyosiy tarjima;
3. Tarjima qilib bo’lmaydigan maqollarni ularning mos keladigan boshqa bir tildagi muqobil variant.

Maqollar ba’zida o’z ma’nosida keladi. Ko’pincha, bo’yoqdor jihatga ega bo’lib, tarjima va tahlilda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Negaki, ular urf-odatga va madaniyatga tegishli terminlarni ko’p hollarda o’ziga jamlagan holatda keladi. Quyidagi maqollarga e’tibor qiling:

1. Everything is good in its season.

Все хорошо в свое время.

Hamma narsa o’z vaqtida yaxshi.

2. Better late than never.

Лучше поздно, чем никогда.

Hech bo’lmagandan kech bo’lgan yaxshi.

Uch tilda bayon etilgan bir ma’noni berayotgan ushbu maqollarni tarjima va tahlilida hech qanday qiyinchilikka duch kelmaymiz. Bu turdagi maqollarni mutloq tarjima turiga mansub deb fikr yuritishimiz mumkin. Nisbatan maqollarda antonimlik hodisasi ham kuzatilgan.

There is no place like home

(East or west, home is best)

В гостях хорошо, а дома лучше.

O’z uying’ o’lan to’shaging.

Bu maqollarda qiyosiy tarjimadan foydalanilgan. Negaki, ingliz yo rus tilida o’zbek tilida uchraydigan “o’lan” so’zi mavjud emas. Ammo, barcha maqollar bir xil ma’noni beryapti. Ingliz tilidagi misolda sinonimlik xususiyati ham namoyon bo’lgan.

As welcome as flowers in May

Такой же желанный, как цветы в мае

May oyida gullar kabi xush kelibsiz.

O’zbek tilidagi maqolga to’g’ridan-to’g’ri mos kelmaydi. Tarjima qilib bo’lmaydigan maqol deb hisoblashimiz mumkin.

Ekvivalent maqollar — turli xalqlarning tillarida shaklan turlicha bo’lsa-da, mazmunan, ma’noviy va funksional jihatdan bir-biriga mos keladigan, ya’ni bir xil o’g’it yoki xulosani ifodalovchi maqollardir. Ular tarjimada o’xshash obrazlar orqali xalqning madaniy qadriyatlarini yetkazib beradi.

Ekvivalent maqollar misollari:

- **O’zbekcha:** Mehnat qilsang, erinmay, to’yingan to’yar o’rinmay.
- **Inglizcha:** No pains, no gains. (Mehnat qilmasang, natija bo’lmaydi).
- **O’zbekcha:** Sichqonning iniga g’alvir sig’magan.

- **Inglizcha:** Too many cooks spoil the broth. (Oshpaz ko'p bo'lsa, ovqat sho'r bo'ladi).
- **O'zbekcha:** Ota o'g'il - o'g'ri o'g'il.
- **Inglizcha:** Like father, like son. (Ota qanday bo'lsa, o'g'il ham shunday).
- **O'zbekcha:** Och qoringa - beshta yong'oq.
- **Ruscha:** Голод не тётка. (Ochlik xola emas - ya'ni majbur qiladi).
- **O'zbekcha:** O'unab gapirsang ham, o'ylab gapir.
- **Ruscha:** Слово - не воробей, вылетит - не поймашь. (So'z - chumchuq emas, uchib ketsa, tutib bo'lmaydi).

G'arb va Sharq adabiyotidan, ingliz va o'zbek maqollarini o'xshash jihatlariga nazar solsak, ushbu ikkala millatda ham do'stlik, vatanparvarlik, hallolik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, adolat kabi tushunchalar doimo madh etilgan. Misol uchun: Bulbul chamanni sevar-Odam Vatanni. Ingliz tilida esa: Every bird likes its own nest – maqolini aytishimiz mumkin. Ushbu maqolni so'zma-so'z tarjima qilsak, har bir qush o'z inini sevadi degan tarzda tarjima qilinadi va o'zbek tilidagi maqol bilan bir xil Vatanni sevish ma'nosi yuzaga kelsada lekin tarjimadan ko'ra o'zbek tilidagi ekvivalentini keltirsak yanada aniq va tushunarli bo'ladi.

Maqollarning har ikkala tilda o'rganilish jihatlarini solishtiradigan bo'lsak, maqollarni to'plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o'rnini o'rganish va umuminsoniy jihatlarini ko'rsatish kabi masalalar deyarli bir xil.

Ingliz tilida maqol atamasi asosan “proverb” so'zi orqali ifoda etiladi. Ba'zan ko'plab adabiyotlarda: adages, distums, maxims, mpttoes, precepts, saws, truism so'zlari orqli ham maqol tushunchasini berishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqollar xalqning boy ma'naviy merosi bo'lib, ularning mazmunida milliy qadriyatlar, hayotiy tajriba va madaniy an'analar mujassamdir. Turli tillardagi maqollarni o'rganish esa nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ekvivalent maqollar turli tillarda shaklan farq qilsa-da, mazmun va funksional jihatdan bir xil g'oyani ifodalaydi. Ular tarjima jarayonida muhim o'rin tutib, xalqlar o'rtasidagi umumiylik va o'xshashliklarni namoyon etadi. Shu bilan birga, ayrim maqollarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qiyin bo'lib, ularni mos ekvivalentlar orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Maqollarni tarjima qilishda mutloq, qiyosiy va muqobil tarjima usullaridan foydalanish zarur bo'lib, bunda tarjimonning til va madaniyatga oid bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, maqollarni to'g'ri talqin qilish va yetkazish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash hamda rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Tuxtamisheva Yodgora Baxodir qizi „Ingliz, Rus va O'zbek tillaridagi ekvivalent maqollar tahlili” 2025
2. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремииалогия. –Москва,1998г (256-260)
3. “INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING MILLIY- MADANIY, UNIVERSAL XUSUSIYATLARI VA TARJIMA JARAYONIDAGI MUAMMOLARNING TAHLILI NATIJALARI” (Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies) maqola Volume 2, Issue 4 April, 2022

4. Jumayeva, M. B. (2023). Classifications of Cardinal Numbers and Ordinal Numbers in English And Uzbek. *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(2), 132-134.
5. Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. *International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory*, 1(2), 414-417
6. Jumayeva, M. B. (2023). Chet Tillarini O'rganishda Ommaviy Axborot Vositalarining O'rni va Ahamiyati. *Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(5), 240- 242.
7. Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. *International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory*, 1(2), 414-417
8. Jumayev, F. B., & Jumayev, B. N. (2023). Ways to Improve Listening Skills Among Children. *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(2), 129-131.
9. S. Shermamatova, Y. Mamadaliyeva „O'zbek va ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari” 2023
10. Mirzaeva, Feruza. “Структурно-семантические характеристики английских и узбекских пословиц с существительными компонентами.” *Универсальная индексная библиотека Вестника педагогов нового Узбекистана*, vol. 1, no. 11, 30 Nov. 2023, pp. 64–67.
11. Mirzayeva F. "Proverb as an object of linguistic research" *World Bulletin of Social Sciences* (33), 82-87, 2024.
12. Mirzayeva F. "Contrastive study of proverbs with a hydronom component in English and Uzbek languages" *The Peerian Journal* (40),36-38, 2025.